

BACHADONDAN ANORMAL QON KETISHI PALM - COEIN SABABLARINING TASNIFI

Cho'liyeva Dildora Erkinjonovna

Bazarova Gulnora Rustamovna

To'liqinov Hamidullo Xamdam o'g'li

ALFRAGANUS UNIVERSITY nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
Tashkent, Uzbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17308332>

Annotatsiya. Bachadondan anormal qon ketishi (AUB) reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydigan eng keng tarqalgan ginekologik muammolardan biridir. Uning tashxis va davolashini yengillashtirish uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) va FIGO tomonidan PALM-COEIN tasnifi ishlab chiqilgan. Ushbu tasnifda sabablar ikki katta guruhga bo'linadi: strukturaviy (PALM) va nonstrukturaviy (COEIN).

- PALM (Polip, Adenomyoz, Leiomioma, Malignansiya va giperplaziya) — bachadonning tuzilishiga bog'liq patologiyalar.

- COEIN (Koagulyopatiya, Ovulyator disfunktsiya, Endometriy, Iatrogen, Nomutaxassishtirilgan) — funksional yoki boshqa tashxis bilan aniqlanadigan omillar.

PALM-COEIN tasnifi shifokorlarga AUB sabablarini tizimli ravishda baholash va mos davolash usullarini tanlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Bachadondan anormal qon ketishi (AUB), PALM-COEIN tasnifi, Polip, Adenomyoz, Leiomioma, Malignansiya va giperplaziya, Koagulyopatiya, Ovulyator disfunktsiya, Endometriy, Iatrogen, Nonspefik sabablar.

PALM-COEIN CLASSIFICATION OF CAUSES OF ABNORMAL UTERINE BLEEDING

Abstract. Abnormal uterine bleeding (AUB) is one of the most common gynecological problems among women of reproductive age. To simplify diagnosis and treatment, the World Health Organization (WHO) and FIGO developed the PALM-COEIN classification. The causes are divided into two main groups: structural (PALM) and non-structural (COEIN).

- PALM (Polyp, Adenomyosis, Leiomyoma, Malignancy and hyperplasia) — structural pathologies of the uterus.

- COEIN (Coagulopathy, Ovulatory dysfunction, Endometrial, Iatrogenic, Not otherwise classified) — functional or other non-structural causes.

The PALM-COEIN classification helps physicians systematically evaluate AUB causes and choose appropriate treatment strategies.

Keywords: Abnormal uterine bleeding (AUB), PALM-COEIN classification, Polyp, Adenomyosis, Leiomyoma, Malignancy and hyperplasia, Coagulopathy, Ovulatory dysfunction, Endometrial, Iatrogenic, Not otherwise classified.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЧИН АНОМАЛЬНЫХ МАТОЧНЫХ КРОВОТЕЧЕНИЙ PALM-COEIN

Аннотация. Аномальное маточное кровотечение (АМК) является одной из самых распространённых гинекологических проблем у женщин репродуктивного возраста. Для упрощения диагностики и лечения Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ) и FIGO разработали классификацию PALM-COEIN. Причины делятся на две основные группы: структурные (PALM) и неструктурные (COEIN).

• **PALM** (Полип, Аденомиоз, Лейомиома, Малигнизация и гиперплазия) — структурные патологии матки.

• **COEIN** (Коагулопатия, Овуляторная дисфункция, Эндометрий, Ятрогенные, Неутонченные) — функциональные или другие неструктурные факторы.

Классификация **PALM-COEIN** помогает врачам систематически оценивать причины АМК и выбирать оптимальные методы лечения.

Ключевые слова: Аномальное маточное кровотечение (АМК), классификация **PALM-COEIN**, Полип, Аденомиоз, Лейомиома, Малигнизация и гиперплазия, Коагулопатия, Овуляторная дисфункция, Эндометрий, Ятрогенные, Неутонченные.

Kirish

O'tkir endometrit (Endometritis). Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi bo'lib, hamma turdagi hayvonlar uchraydi va hayoti davomida yuzaga keladigan bepustlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Yallig'lanish mahsulotlarning ta'sirida jinsiy hujayralar nobud bo'ladi yoki zigota fagotsitozga uchraydi.

Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi natijasida tuxumdonlar ko'pincha ikkilamchi tartibda shikastlanadi (sariq tana turib qoladi, follikulalar yorilmaydi, yallig'lanishga uchraydi va h.k.) va follikullarning yetilishi izdan chiqadi.

O'tkir endometrit giperemiya va bachadon shilliq pardasining shishi bilan kechadi.

Giperemiyaning zo'rayishi bilan tomirlarning ekstravazatsiyasi, ya'ni qon zardobi va hatto, shaklli elementlarining tomirlar devori orqali bachadon hujayralari orasidagi bo'shliqqa sizib chiqishi kuzatiladi.

Sabablari. Bachadon shilliq pardasi ko'pincha mikroorganizmlar (streptokokk, stafilocokk, ichak tayoqchasi va b.)ning qindan yoki qon tomirlari orqali o'tishidan yallig'lanishi mumkin.

Patologik tug'ishlarda bachadonning jarohatlanishi, ajralmay qolgan homila pardalarining chirishi, bachadon involyutsiyasining sekinlik bilan (bachadon atoniyasi) kechishi endometrit paydo bo'lishiga sasa bo'ladi. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va parvarishlash, oziqalar tarkibida vitaminlar va mineral moddalar yetishmasligi va matsionning yetarlicha bo'lmasligi oqibatida ko'pincha bachadonning involyutsiyasi sekinlashadi.

Hayvonni sun'iy urug'lantirishda aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilinmasligi, shuningdek, kasal hayvonlarni urug'lantirgan erkak hayvon urug'lantirganda ham jinsiy yo'llarga infektsiya tushishi mumkin.

Kechishi. Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi tashqaridan qaraganda mahalliy jarayon tarzida o'tadi. Lekin organizm rezistentligining pasayishi, qon va limfa tizimiga mikroorganizmlar tushganda umumiy kasallik sepsis (septetsmiya, piemiya) vujudga keladi.

Vaginal tekshirishda bachadon bo'ynining shilliq pardasi tiqinga o'xshab do'ppayib turadi, qizargan va bir oz bo'rtgan bo'ladi, bachadon bo'yni kanali ochiq turadi, qin tubida ekssudat to'planib turadi. Kataral endometritda ekssudat xira, kul rang va yopishqoq, yiringli endometritda esa sarg'ish rangli, ba'zan qo'lansa hidli bo'ladi.

Kasallik oqibati. O'z vaqtida, to'g'ri davolansa, kasallik o'tib ketadi. Aks holda surunkali kataral yoki yiringli-kataral endometritga aylanadi.

Kasallikni davolash. Endometrit bilan og'rigan hayvonlarga antibiotikoterapiya: (penitsillin, streptomitsin, biomitsin, tetratsiklin, eritromitsin va boshqalar) tavsiya etiladi.

Penitsillin ko'pincha streptomitsin va boshqa antibiotiklar bilan birgalikda qo'llanadi.

Penitsillin dozalari (1 kg tana vazniga ming TB hisobida): otlarga - 1-2, qoramollarga - 2-3, qo'ylarga - 4-10, cho'chqalarga - 2-3 hisobida muskul orasiga yuboriladi. Streptomitsinning o'rtacha sutkalik dozasi qoramol uchun 1 g - 100 ming TB (500 ming TB/kg dozada kuniga ikki mahal). Kasal hayvonning ahvoriga qarab, har 3-6 soatda 1 marta in'ektsiya qilinadi.

Antibiotiklar, odatda, kasallik o'tib tana harorati me'yoriga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida qo'llaniladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi.

Mikroorganizmlar antibiotiklarga chidamli bo'lsa sulʼfanilamid preparatlari: sulʼfidin, sulʼfazol, sulʼfatsil va norsulʼfazol ishlatish kerak. Bu preparatlar 2-3 kun davomida kuniga 1-2 marta qo'llanadi.

O'tkir endometritlarda umumiy davolash bilan birga bachadon qisqarishini kuchaytirish va bachadon bo'shlig'ini ekssudatdan bo'shatishga qaratilgan davolash tadbirlarini ham ko'rish zarur.

Bachadonni yuvib, ekssudatni chiqarib tashlash yaxshi samara beradi.

Bachadonni yuvish uchun quyidagi eritmalar: rivanol, xinozol, tripaflavin yoki akriflavin eritmaları (1:1000), kaliy permanganat eritmasi (1:10000), soda eritmasi (1-2%-li), osh tuzi (1 va 3-10%-li), sut kislotasi (0,5%-li), borat kislotasi (2-3%-li), ixtiol (3%-li), tanin eritmasi (0,5%-li) va boshqalar ishlatiladi.

Eritmalar 40°S gacha iliq holda ishlatiladi. Yuvish bachadondan eritma ragidagi suyuqlik oqib chiqguncha davom ettiriladi. Bir marta yuvish uchun yallig'lanish jarayonining turi va darajasiga ko'ra, 2 l dan 10 l gacha dezinfektsiyalovchi eritma ishlatiladi.

Bachadonda ekssudatning to'planishiga qarab, har kuni yoki kun ora yuviladi. Ajratmalar ancha kamayib qolgandan keyin uch-to'rt kunda bir marta yuvilsa bo'ladi. Yuvish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irigator yoki maxsus nasos bilan yallig'lanish ekssudatini tortib olish tavsiya etiladi.

Bachadondan ekssudatni chiqarib tashlashga yordam beradigan, uning qisqarishini kuchaytiradigan boshqa davo usullaridan ozokerit, parafin, applikatsiyalar qo'yishni, balchiq bilan davolash va bachadonni massaj qilishni aytib o'tish zarur. Barmoqlarning yumshoq joyi bilan silab, massaj qilinadi. Limfa va vena tomirlari bo'ylab, ya'ni shoxlarining uchidan bo'yniga qarab, 3-5 daqiqa davomida massaj qilib boriladi.

Qon quyilgandan keyin, gematomalar, yirik qon tomirlarining tromboz iva barcha turdagi yiringli yallig'lanish jarayonlarida hamda yomon sifatli o'smalarda bachadonni massaj qilish yaramaydi.

Bachadonning qisqarishini kuchaytirish uchun teri ostiga pituitrin, pregnantol yoki belladonna ekstrakti yuboriladi (yirik hayvonlarga 5-10 ml).

Endometritlarni davolash uchun gormonal va neyrotrop preparatlar: sinestrol, stilbestrol, karboxolin, prozerin va boshqalar ishlatiladi. Sinestrolning o'simlik moyi yoki spirtidagi 1%-li eritmasi 3-5 ml yoki 1,5-2,5 ml stilbestrol 24 soat oralatib 3-4 marta teri ostiga yuboriladi.

Neytrotrop preparatlar (0,1%-li karboxolin 2-3; 0,5%-li prozerin 2-3 ml) teri ostiga yuboriladi.

To'qima preparatlari bilan davolash yaxshi natija beradi (G.I.Pronin). Ko'chirib o'tkazish uchun sigir yoki cho'chqa tuxumdoni, buqalar, erkak cho'chqa, taka yoki qo'chqorlar urug'donining to'qimasi yoki sigir tuqqan paytidagi amnion to'qimasi ishlatiladi. Amnion quyidagicha tayyorlanadi: avval vodoprovod suvida yuviladi, keyin mayda kesilib, 1%-li osh tuzi eritmasida yuviladi va 2%-li xloramin eritmasiga solinib, 2-4°S gacha haroratda 8 sutka saqlanadi.

Saqlash paytida xloramin eritmasi birinchi sutkada 2 marta, keyinchalik, har 24 soatda almashtirib turiladi. Urug'don va tuxumdonlarning to'qimasi avval 1%-li osh tuzida 30-40 daqiqa saqlanadi, keyin 2%-li xloramin eritmasiga solinib, amnion to'qimasi qancha muddat saqlanadigan bo'lsa bu eritma ham shuncha muddat saqlanadi.

To'qima preparati bo'yin sohasining o'rtadagi uchdan bir qismiga, bo'yin qirrasidan 8-10 sm pastroqda teri ostiga o'tkaziladi. Buning uchun teri kesilib, teri osti klechatkasi ochiladi, keyin skalpel tig'i bilan teri osti klechatkasi qirqiladi va o'tmas uchi bilan xaltacha hosil bo'ladigan qilib fastsiyalardan ajratiladi. Ko'chirib o'tkazish uchun tayyorlab qo'yilgan amnion to'qimasi, tuxumdon yoki urug'don bo'lagi sterillangan pintset bilan xaltachaga solinadi va jarohat chetlari choklab qo'yiladi, choklar 9-10- kuni olib tashlanadi.

O'tkir va surunkali endometritlarni davolashda biostimulgin to'qima preparatini ishlatish mumkin. Biostimulgin bo'yin sohasida terisi ostiga bir marta o'ng tomondan va bir marta chap tomondan quyidagicha yuboriladi: birinchi uch kunda kuniga bir marta, keyin kunora ikki-uch marta va keyin hayvon tuzalib ketguncha, 2 kun oralatib 1 marta 30 ml dan in'ekiya qilinadi.

Surunkali endometrit. Kasallik, odatda o'tkir endometrit oqibatida kelib chiqadi va endoteliyning kuchli o'zgarishi hamda bachadon bezlarining kuchli sekretsiyasi bilan kechadi.

Ekssudatning xarakteriga ko'ra, kataral, yiringli-kataral va yiringli surunkali endometritlar farqlanadi.

Surunkali endometritlarda, ba'zan bachadon bo'ynining juda shishib ketishi tufayli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib qoladi. Ekssudat suvga o'xshagan suyuq bo'lsa (kataral ekssudat) bachadon istisqosi (Hydrometria) deb ataladi. Bachadonda ko'p miqdorda yiringli ekssudat to'planganda piometra (Piometria) vujudga keladi. Yashirin o'tadigan surunkali endometrit surunkali kataral endometritning bir turidir.

Yashirin surunkali endometrit. Kasal sigirlarda kuyikishlar orasidagi davrda klinik belgilar sezilmaydi va to'g'ri ichak orqali hamda qin orqali tekshirishda ham normadan tashqari o'zgarishlarni topib bo'lmaydi. Hayvon kuyikkan paytida esa bachadondan odatdagidan ko'ra ko'proq loyqalangan, ba'zan yiringli ekssudat aralashgan suyuqlik chiqadi.

Biyalarda yashirin surunkali endometritda kuyikish belgilari yaxshi bilinmaydi va kuyikish vaqtida qinda o'lgan to'qimalar aralashgan loyqa, yopishqoq shilimshiq to'planib qoladi.

Diagnostikasi. Sigirlar odatdagicha kuyukib turgani bilan qisir qolishiga, shuningdek, hayvon kuyikkan davrda jinsiy yo'llardan ko'p miqdorda yiring aralash loyqa shilimshiq suyuqlik oqishi diagnoz uchun asos bo'ladi.

Biyalarda bu kasallik to'g'ri ichak orqali tekshirish bilan aniqlanadi. Bunda bachadon tanasining yoki ko'pincha ikkala shoxining hamma joyida yoki qisman qalinlashganligi topiladi, ular qo'lga zichlashgan, atoniya holida seziladi, ba'zan hayvonda og'riq sezish kuzatiladi.

Oqibati. O'z vaqtida davolanganda hayvonning urug'lanishi asliga keladi.

Davolash. Hayvonni yetarlicha oziqlantirish va parvarishlash, yayratib turish. Davolashda bachadon massaj qilinadi, qin orqali 3-4 l dezinfektsiylovchi eritmalar bilan (harorati 42-43°S bo'ladi) vanna qilinadi.

Massaj va qin orqali vannalar har 1-3 kunda bir marta, kamida 4-5 marta o'tkaziladi.

Hayvonni urug'lantirishdan bir necha soat ilgari bachadonni 0,9%-li natriy xlorid (40-42°S) eritmasi bilan yoki tuz-soda-qand eritmasi bilan (100 ml distillangan suvga 1,0 natriy xlorid, 3,0 natriy bikarbonat va 90,0 qand) yuvib, keyin massaj qilish tavsiya etiladi (A.Yu.Tarasevich). Bu eritmadan bachadonga 250-500 ml gacha yuborish kerak.

Tuxumdonlarning kasalliklari.

Tuxumdonlarning yallig'lanishi (Ovaritis). Kasallik hamma turdagi hayvonlarda uchrab, o'tkir va surunkali o'tishi mumkin.

Sabablari. Yallig'lanish jarayoni virulent mikroorganizmlar tufayli kelib chiqadi, bu mikroorganizmlar yo'ldosh ajralmay qolganida yoki bachadon shilliq pardasi yallig'langanda bachadon shoxlarining uchidan tuxum yo'llari orqali tuxumdonga tushadi. Mikroorganizmlar ba'zan qon yoki limfa yo'llar bilan o'tadi. Haddan tashqari zo'r berib massaj qilinishi yoki tuxumdon kistalarining teshilishida yuzaga keladigan shikastlanishlar ba'zan tuxumdonning yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

Belgilari va aniqlash. O'tkir ovaritda hayvonning tana harorati ko'tariladi, bo'shashadi, ishtahasi pasayadi. Ikkala tuxumdon shikastlangan bo'lsa jinsiy sikllar ritmi buziladi, tuxumdon bir tomonlama shikastlanganda esa jinsiy sikl buzilmasligi mumkin.

Tuxumdonlar to'g'ri ichak orqali tekshirilganda o'tkir yallig'lanishida kattalashgan, og'riqli, butun yuzasi silliq, shishgan va yumshagan, surunkali yallig'lanishda tuxumdonlar biriktiruvchi to'qimaning o'sishi hisobiga qattiqlashgan, abstsess paytida tuxumdonlar og'riqli, pufakchasimon shaklda bo'lib, fluktuatsiyasi seziladi.

Prognoz. Tuxumdonlar yallig'lanishining har qanday xilida ham oqibati jihatidan ehtiyot bo'lish kerak. Mikroorganizmlarning ta'siri kam, organizmning himoya kuchlari esa kuchli bo'lgan hollarda o'tkir jarayon astasekin so'nib, tuxumdon asliga kelib qoladi. Tuxumdonlardagi kasallik jarayoni cho'zilib, surunkaliga o'tadigan bo'lsa to'qimasida chuqur o'zgarishlar yuzaga keladi.

Davolash. Haroratining ko'tarilish bilan birga davom etadigan o'tkir yallig'lanishda antiseptik moddalardan (sulfanilamid preparatlar, antibiotiklardan) foydalanish kerak.

Retikuloendotelial sistemani faollashtirish va organizmining qarshiligini oshirish maqsadida vena orqali 20%-li spirt yuboriladi.

Kasallikning surunkali kechishida tuxumdonlarni to'g'ri ichak orqali 2-3 hafta davomida kuniga 5 daqiqadan massaj qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, 5%-li moychechak damlamasiga 2%-li ixtiol qo'shish bilan tayyorlangan ixtiol-moychechak suyuqligi 42-45°S haroratda ishlatiladi. Suyuqlik axlatdan tozalanib, qalin qilib vazelin surtilgan to'g'ri ichakka kuniga 1 l, olti kun davomida yuboriladi.

Xulosa

Bachadon va tuxumdon kasalliklari ayollar reproduktiv salomatligiga eng ko'p ta'sir etuvchi ginekologik muammolardan hisoblanadi. Ushbu kasalliklar orasida bachadondan anormal qon ketish, mioma, adenomioz, endometriyal giperplaziya, poliplar, shuningdek tuxumdonlarning kistalari, policistik tuxumdon sindromi (PTOS), o'sma va yallig'lanish jarayonlari ko'p uchraydi.

Bachadon kasalliklari ko'pincha hayz siklining buzilishi, ko'p va og'riqli qon ketish, bepushtlik hamda kamqonlik bilan kechadi. Tuxumdon kasalliklari esa ayol organizmida gormonal muvozanatni buzadi, ovulyatsiyaning to'xtashiga, natijada bepushtlik va turli endokrin muammolarga sabab bo'ladi.

Bunday patologiyalarni erta aniqlash va davolashda ultratovush diagnostikasi, gormonal tekshiruvlar, laborator va instrumental usullar muhim ahamiyatga ega. Davolash choralariga gormonal terapiya, medikamentoz davo, fizioterapiya, zarur hollarda esa jarrohlik aralashuvi kiradi.

Profilaktika choralariga muntazam ginekologik ko'rikdan o'tish, hayz siklini nazorat qilish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, infeksiyon kasalliklarni o'z vaqtida davolash va stressni kamaytirish kiradi.

Xulosa qilib aytganda, bachadon va tuxumdon kasalliklari nafaqat ayollarning reproduktiv salomatligini, balki umumiy hayot sifatini ham pasaytiradi. Shu bois bu kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va samarali davolash har bir ayolning sog'lom hayot kechirishi va ona bo'lish imkoniyatini saqlab qolish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev A. va boshq. Akusherlik va ginekologiya. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Fan nashriyoti, 2019.
2. Karimova M., To'xtayeva D. Ayollar reproduktiv salomatligi. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2018.
3. Nazarova G. Ginekologiyada uchraydigan qon ketishlar va ularni davolash. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
4. Qo'ziyev S., Omonova S. Akusherlik va ginekologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2016.
5. Yusupova M. Ayollarda hayz sikli buzilishlari va anormal qon ketishlar. Ma'ruza matnlari. – Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, 2021.
6. Toshpo'latova D. Ayollar salomatligi va ginekologik kasalliklar. – Samarqand: SamDTI nashriyoti, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi SSV. Ayollarda anormal bachadon qon ketishlarini tashxislash va davolash bo'yicha klinik protokol. – Toshkent, 2022.
8. Qodirova N. Endokrin ginekologiya asoslari. – Toshkent: TTA nashriyoti, 2015.
9. Usmonova D. Ginekologiyada shoshilinch yordam. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
10. Matyoqubova H. Ayollarda hayz buzilishlari etiologiyasi va klinikasi. – Toshkent, 2018.